

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASH

Xamdamov Azizjon Olimjon o‘g‘li

Jizzax Politexnika instituti

Energetika kafedrasи, assistenti

hamdamovazizjon6@gmail.com

Tulakov Jahongir To‘raqul o‘g‘li

Jizzax Politexnika Inistituti

Energetika kafedrasи, assistenti

tulakovjahongir5455@gmail.com

Shodmonov Jaylon Bahitiyor o‘g‘li

Jizzax Politexntka Inistituti magistranti

Xursanov Bekmurod O‘razali o‘g‘li

Jizzax Politexntka Inistituti magistranti

ANNOTATSIYA: Respublikamiz hududida elektr energiyasining sifati asosan elektr ta’moti tarmoqlari oqimlarini, chastota, kuchlanish, toklarni boshqarish va boshqarishda qo‘llaniladigan magnit toklarning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda tok va yuklamaga bog‘liq. Qishda biz elektr energiyasi sifatini yaxshilash uchun yechim sifatida foydalanishimiz mumkin. Bugungi kunda elektr energiyasiga talab ortib bormoqda. Ushbu holatda biz havo tarmoqlarida quvvat yo‘qotilishini ko‘paytirmaslik uchun tarmoq uzunligini qisqartirish maqsadida foydalanishimiz mumkin. Agar kuchlanishni oshirsak, uni yo‘q qilamiz, tarmoqdagi simning kesim yuzasini tanlashimiz kerak. Tadqiqot natijalarida ushbu yo‘nalishdagi holatlar taqdim etiladi.

KALIT SO‘ZLARI: elektr energiyasini tejash, ishlab chiqarish korxonalari, reaktiv quvvat, aktiv quvvat iste’moli, quvvat kompensatsiyasi

Elektr energiyasini tejash nafaqat tabiiy yoqilg‘i resurslarini tejab qolish, balki elektr energiyasini ishlab chiqarishda issiqlik elektr stansiyalari atmosferaga tarqatayotgan zararli gazlar va chiqindilar miqdorini kamaytirish xamdir.

Shunindek elektr energiyasini ishlab chikarishdagi muommalardan tashqari elektr uzatish tarmoqlarida xam uziga xos muammolar mavjud. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 10 – 15 % elektr energiya uzatishda yo‘qoladi.

Ma’lumki o’tkazgichlardagi isroflar asosan undan oqayotgan tok miqdoriga bog‘liq, o‘z navbatida uzatish liniyalaridan o‘tayotgan tok miqdori oqayotgan quvvatlarga bog‘liq buladi. Elektr uzatish liniyalaridan oqayotgan quvvatlar istemolchining xarakteriga mos ravishda aktiv va reaktiv bo‘lishi mumkin. Reaktiv quvvatni korxonada kompensasiya qurilmalarini o‘rnatib ishlab chiqarish mumkin [1]. Ishlab chiqarish korxonalari iste’mol qilayotgan elektr energiyasini iste’molini taxlil qilish korxonada elektr energiyasini qanday foydalanilayotganligini yaqqol ko‘rsatadi, Bu xolni Jizzax viloyatida joylashgan “Do‘stlikdonmaxsulotlari” OAJ misolida energiya tejash masalasini ko‘rib chiqamiz. “Do‘stlikdonmaxsulotlari” OAJ korxonasining 2012 yil fevral oyida iste’mol qilgan elektr energiyasi quyidagicha taqsimlangan [2]:

- Aktiv energiya iste’mol $Wa = 415792 \text{ kVt} \times \text{soat}$.

- Ryeaktiv energiya iste’mol $Wp = 584790 \text{ kVAr} \times \text{soat}$

Korxona 1 kunda 24 soat ishlaydi $T = 27 \text{ kun} \times 24 \text{ soat} = 648 \text{ soat DAK}$

“O‘zbekenergo” tomonidan “Jizzak elektr tarmoklari” OAJ korxonasi tasarrufidagi elektr tarmoqlari uchun belgilangan elektr energiya yo‘qolishi moyoriy mikdori - 9,15 %. [1] Ushbu maъlumotlar asosida korxonaning 2012 yil fevral oyi uchun reaktiv quvvat koeffisiyenti tg φ - miqdorini aniqlaymiz :

$$\text{tg } \varphi = Wp / Wa = 584790 / 415792 = 1,41$$

tg φ_n - reaktiv quvvat koeffisiyentining normativ miqdorini [1] NIZOM asosida aniqlaymiz.

$$\text{tg } \varphi_n = 0.25 \quad (\text{Un}=0,4 \text{ Kv li tarmoq uchun})$$



LORACHEVSKY
UNIVERSITY

N
Новосибирский
Государственный
Университет
настоящая наука

N
Новосибирский
Государственный
Технический Университет
НЭТИ

МФТИ

Korxonaning $\text{tg } \varphi = 1,41$ miqdoriga mos keluvchi tok ta'sirida issiqlik ko'rinishida ajralgan quvvat va elektr energiyaning yo'qolishini ortishini belgilovchi koeffisiyentni NIZOM asosida aniklaymiz [1] - $K = 2.78$ (ya'ni uzatilayotgan reaktiv quvvat va energiya belgilangan moyoriy qiymatdan ($\text{tg } \varphi_n = 0.25$ dan) ortiq bo'lganda elektr energiyaning yo'qolishi 1,78 qiymatga ortadi). Bunda korxona tomonidan reaktiv elektr energiyaning belgilangan moyordan ortiq istemoli xisobiga DI «O'zdavenergonazorat» tomonidan DAK O'zbekenergoning «Jizzax elektr tarmoqlari» OAJ uchun belgilagan moyordan ortiq yo'qolishi 2012 yil fevral oyi uchun quyidagicha aniqlaniladi.

$$\Delta W_{\text{norma}} = (9,15\% / 100) * W_a = (9,15 \% / 100) * 415792 = 38045 \text{ kVt soat.}$$

Korxona tomonidan 2012 yil fevral oyida iste'mol qilinishi lozim bo'lgan moyoriy reaktiv elektr energiya quyidagicha aniqlaniladi.

$$W_r^{\text{norma}} = W_a * \text{tg } \varphi_n = 415792 * 0.25 = 103948 \text{ kVAr x soat.}$$

2012 yilning fevral oyida korxona belgilangan moyoriy qiymat ($\text{tg } \varphi_n = 0.25$) ya'ni normadan ortiq va quyidagicha aniqlanuvchi reaktiv elektr energiya iste'mol qilgan:

$$W_r^{\text{norma ortiq}} = W_r - W_r^{\text{norma}} = 584790 - 103948 = 480842 \text{ kVAr x soat.}$$

Meyor bo'yicha iste'mol qilingan 1 kVAr. x soat reaktiv elektroenergiyaning narxi 1 kVt. x soat aktiv elektr energiyining narxining

5 % ni tashqil qiladi (2012 yil fevral oyida 1 kVt. x soat aktiv elektr energiyaning narxi amaldagi ta'rif asosida 71 so'm 10 tiyinni, $\text{tg } \varphi_n = 0.25$ va undan kichik xollarda iste'mol qilingan reaktiv elektr energiyaning narxi, ya'ni 1 kVAr. x soat reaktiv elektr energiyaning narxi 3 so'm 58 tiyinni (ya'ni amaldagi aktiv elektr energiyani narxini 5 % ni) tashkil etadi, normadan ortiq(ya'ni $\text{tg } \varphi_n = 0.25$ dan ortiq bo'lgan xolda iste'mol qilingan reaktiv elektr energiyaning narxi 71 so'm 10 tiyinni , (ya'ni amaldagi aktiv elektr energiyani narxini 10 % ni) tashkil etadi. Bir yil mobaynida (DI «O'zdavenergonazorat» tomonidan o'natilgan jarima belgilash vaqt) belgilangan normadan ortiq iste'mol qilingan reaktiv elektr energiyaning yig'indi narxi quyidagicha aniklanadi:

$$S_{W_r \text{ normadan ortiq}} = W_r^{\text{normadan ortiq}} * 10 \% \text{ aktiv energiya narxi x}$$

$$x \text{ jarima belgilash vakti (12 oy)} =$$

$$= 480842 \text{ kVAr.xsoat} x 71 \text{ sum} 10 \text{ tiyin} x 12 \text{ oy} = 40967738 \text{ sum}$$

Korxona 2012 yil fevral oyida normadan ortiq iste'mol qilganligi sababli «Jizzax elektr tarmoqlari » korxonasi elektr tarmoqlarida normadan ortiq aktiv elektr energiyasining yo'qolishiga olib keladi. U mikdor quyidagicha aniklanadi:

$$\Delta W_{\text{normadan ortiq}} = (K - 1) \Delta W_{\text{norma}} = (2,78 - 1) * 38045 = 67720 \text{ kVt.ch.}$$

Elektr tarmoqlaridan oqib o'tgan normadan ortiqcha reaktiv elektr energiyasi natijasida xosil bo'lgan aktiv elektr energiya yo'qolishining narxi quyidagicha aniklanadi:

$$S_{W_a \text{ normadan ortiq}} = \Delta W_{\text{normadan ortiq}} X$$

$$x 1 \text{ kVt.xsoat aktiv elektr energiyaming narxi x}$$

$$x \text{ jarima belgilash vakti (12 oy)} =$$

$$= 67720 \text{ kVt.xsoat} x 71 \text{ sum} 10 \text{ tiyin} x 12 \text{ oy} = 58266288 \text{ sum}$$

Normadan ortiq iste'mol qilingan aktiv elektr energiya korxonaning talab qilingan aktiv quvvatini ortishiga olib keladi:

$$R_{\text{talabdan ortiq}} = \Delta W_{\text{normadan ortiq}} / T_{\text{oy}} = 67720 / 720 = 94 \text{ kVt}$$

$$\text{Bu yerda } T_{\text{oy}} = 24 \text{ soat} x 30 \text{ kun} = 720 \text{ soat.}$$

Normadan ortiq iste'mol qilingan reaktiv elektr energiya xisobiga ortgan mikdordagi talab qilingan aktiv quvvatning to'la yig'indi summasi quyidagicha aniklanadi:

$$S_{R \text{ normadan ortiqtalab qilingan}} = R_{\text{normadan ortiqtalab qilingandan}} X S =$$

$$= 94,7 \text{ kVt} x 9300 \text{ sum} x 12 \text{ oy} = 10496600 \text{ sum.}$$

Kyeltirilgan xisoblar asosida korxona tomonidan normadan ortiq iste'mol qilingan reaktiv elektr energiya umumiy xolda bir yil mobaynida 109730626 so'm miqdordagi qo'shimcha sarf xarajatlar qilinishiga olib keladi. Yukorida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqari korxona «Jizzax elektr tarmoqlari » OAJ korxonasi elektr tarmoqlarida elektr energiyasini yo'qolishini kamaytirish, elektr tarmoqlari o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr energiyasi bilan ta'minlashni ishonchlilagini oshirish va Jizzax viloyati xokimligi tomonidan olib borilayotgan elektr energiyani



tejash dasturini bajarilishini ta'minlash uchun xamda NIZOMning bajarilishini ta'minlash uchun quyidagi miqdorda reaktiv quvvat manbasini – statik kondensator qurilmalarini (batareyalarini) o'rnatishi lozim:

$$\begin{aligned} Q_{ku} &= Km * \operatorname{tg} \varphi * (Wa / T_{oy}) = \\ &= 1 * 0,25 * (415792 / 216) = 481 \text{ kVAr} \quad [1] \end{aligned}$$

Bu yerda $Km = 0,3 - 1$ – maksimum koeffisiyent [1]

Agar xar bir ishlab chiqarish korxonasiga [1] da belgilangan reaktiv quvvat manbai kondensator uskunalarini o'rnatsak 10 % dan ortiq elektr energiyasini tejab qolishimiz mumkin. Ya'ni 1 oy mobaynida viloyat korxonalari bo'yicha 22 568 000 so'm tejab qolishga erishish mumkin. Bu 1 oy davomida viloyat bo'yicha 677 040 000 so'mdan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. Anvar S. et al. USE OF WIND AND SOLAR ENERGY AS THE MAIN ENERGY SOURCE IN AUTONOMOUS NETWORKS //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 306-310.
2. Reaktiv quvvatni kompensasiya bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM. №1864 10.10.2008. DI Uzenergonazorat. Toshkent 2008 y
3. Baratov son of Laziz Suyun, Khamdamov son of Azizjon Olimjon, Jumanov Abbas Nabijonovich, Jalilov O'rionboy Abdunayimovich. (2023). CALCULATION OF POWER WASTE IN ELECTRICAL NETWORKS. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 10, 57–61. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajrhss/article/view/525>



TIIAME
Tashkent Institute of International Trade



LOBACHEVSKY
UNIVERSITY



Новосибирский
государственный
университет
**настоящая наука*



Новосибирский
государственный
технический университет
НЭТИ

